

O'QUVCHILAR TAFAKKUR JARAYONLARINI SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOGIK TEENOLOGIYALARING AHAMIYATI

¹JDPU katta o'qituvchisi Sh.Kamolova

²Pedagogika va psixologiya yo'nalishi 2-bosqich magistri Ya. Amanxonova

Annotatsiya: Mazkur maqolada bugungi globallashuv jarayoniga xos ta'lim texnologiyalaridan foydalanish masalalari pedagogik texnologiyalar asosida o'quvchiningning hayotga tayyorgarligini shakllantirish, doimiy o'zgaruvchan, tobora o'zaro bog'lanib borayotgan pedagogik texnologiya insonning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi zarurligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: globallashuv, pedagogik texnologiya, innovatsiya, interfaol metod, dunyoqarash, ishbilarmonlar o'yini, texnologiya.

Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohani jadal rivojlantirish, ilmiy-intellektual hamda moliyaviy resurslarni to'liq safarbar etgan holda ilmiy-innovatsion salohiyatdan keng foydalanish, istiqbolda ilm-fanni muntazam isloh qilib borishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilimga ega va mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ilmiy infratuzilmani modernizatsiya qilish ishlarini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish maqsadida O'quvchilarni barkamol inson bo'lib yetishishlarida ta'lim-tarbiya jarayonlaridagi islohatlarni yanada kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ta'lim konsepsiyasida shaxsni bilim olishga bo'lgan ichki ehtiyojini hosil qilish va uni o'qishga o'rgatishga, ichki tajribasi, his-tuyg'ulari, tafakkuriga katta e'tibor qaratilgan.

O'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, tafakkur va qobiliyatini faollashtirish, kuzatuvchanlik, mantiqiy fikr yuritishda amaliy metodlar katta ahamiyatga egadir. Amaliy metodlar tarixiy manbalar bilan insonlar orasidagi o'zaro aloqadorlikni bilishning samarali metodi hisoblanadi, chunki ularda o'quvchilarni qiziqtiradigan natijalar bo'ladi. Shuningdek, O'quvchilar tafakkukr jarayonlarini shakllantirishda amaliy metodlarni uchga bo'lib izohlaymiz:

O'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, kuzatuvchanlik, mantiqiy fikr yuritish va nutqni tarbiyalashda tajribalar katta ahamiyatga ega. O'quvchilar insonlarning tabiatni o'zgartirishlarida tajribalar chinakam vosita bo'lishini ko'rishlari kerak.

Demak, ta'lim tizimiga yangiliklarni olib kirish pedagogik texnologiyalaridan unumli foydalanish bugungi kun ta'limi oldiga qo'yilgan muhim vazifalardan biridir

Darhaqiqat, interfaol usullar ta'lim jarayonining unumdarligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fiklash jarayonini shakllantiradi, talabalarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarni shakllantiradi.

Demak, ta'lim tizimiga yangiliklarni olib kirish zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan unumli foydalanish bugungi kun ta'limi oldiga qo'yilgan muhim vazifalardan biridir

Interfaol usullar ta'lim jarayonining unumdorligini oshiradi, o'quvchilarining mustaqil fiklash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoyq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarni shakllantiradi.

Shuni ta'qidlash kerakki ta'lim inson bilish faoliyatining eng murakkab turlaridan biri bo'lib, individual psixik rivojlanishni va bilimlarni o'zlashtirishni ancha tezlashtiradi. O'qituvchi ta'lim jarayonida faqat bilim berish bilan chegaralanmaydi, balki bu jarayonda o'quvchiga ta'sir ko'rsatadi. Bu esa ularning bilim olishlarini yanada faollashtiradi. Natijada, o'quvchi ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi. Ta'limdagи yutuqlar, eng avvalo, o'qituvchiga bog'liq.[2.65,]

Bugungi kunda ta'lim jarayoniga axborot texnologiyalarni qo'llanilishi jadallashmoqda va bu ta'lim jarayonini yanada sifatli tashkil etishga ta'sir ko'rsatayotgani ko'zga tashlanmoqda. Shuning uchun xam ta'lim jarayonida interfaol metodlarni qo'llash, ta'lim samaradorligini oshirish uchun tinimsiz izlanish bugungi kunning extiyojiga aylandi, talabalarning o'qish motivlarini o'stiradi.

Innovsiya (Innovation) yangilik yaratish, yangilikdir. Demak an'anaviy ta'limdagи kabi bir hil shablonlar asosida emas balki, yangiliklar asosida ta'lim jarayonining ta'sirchanligini oshirishga qaratilgan ish shaklidan foydalanish innovatsiya demakdir. Ta'limda pedagogik texnologyalarga asoslanish va innovatsiyaga intilish, o'quvchilarini tafakkur xususiyatlarini shakllantirishga qaratilgan turli interaktiv metodlardan foydalanish ta'lim maqsadini samarali amalga oshirishga yordam beradi.[3.84,]

Ta'lim va tarbiya jarayonida o'qituvchi (pedagog)lar tomonidan interfaol metodlarning o'rinni, maqsadli, samarali qo'llanilishi ta'lim oluvchi (o'quvchi, talabalar)da muloqotga kirishuvchanlik, jamoaviy faoliyat yuritish, mantiqiy fikrlash, mavjud g'oyalarni sintezlash, tahlil qilish, turli qarashlar orasidagi mantiqiy bog'liqlikni topa olish qobiliyatlarini tarbiyalash uchun keng imkoniyat yaratadi.

Innovatsiyalar o'z navbatida quyidagilar bilan bog'liq bo'ladi:

- Yangi mavzuni qabul qilish;
- Yangi jarayonlarni olib kirish;
- Rivojlanish maydoninig yangi mazmuni;
- Birgalikdagi xarakatning yangi tashkiliy shakllari;
- Yangi boshqaruv;
- Yangi mahsulot kabilari.

Shu sababli ham hozirda pedagogik innovatsiyani yaxlit murakkab jarayon sifatida qaralib, uning interfaol sifatlari, tarbiyaviy qismlari, funksional tavsifi va uzviyligi izchil tadqiq qilinmoqda. Bu borada biz innovatsion ta'lim texnologiyalaridan psixologiya fanlarini o'qitishda foydalansak o'quvchilar

bilish jarayoni tafakkurini rivojlantirish belgilangan talablar darajasida shakllantirish imkonini beradi.

Demak, o'quvchilar tafakkurini – ilm-fan, texnika-texnologiya, ma'naviyat, maorif, san'at va shu kabilarni rivojlantirib, ularning hozirgi holatini yangi sifat bosqichiga ko'tarish bilan bevosta uzviy bog'liqidir. Bugungi kunda ana shunday natijalarni qo'lga kirita oladigan mutaxassislarni tayyorlash o'ta mas'uliyatli va dolzarb ekanligi hech kimga sir emas. Ayniqsa, zamonaviy mutaxassislarning asosiy vazifalaridan biri ham ular o'zlarining intellektual salohiyatini jamiyat taraqqiyoti saviyalarga mos holda muntazam ravishda yuksaltirib borishdan iboratdir.

Buning uchun ta'lim jarayonini tashkil etishda o'quvchilar fan asoslarini mukammal o'zlashtirishlari uchun ta'lim jarayonida faol ishtirot etishlari va ularni qiziqiz bilan ishlashlariga imkon beruvchi samarali usullaridan foydalansak maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'quvchilar tafakkur xususiyatlarini shakllantirishda ishbilarmon o'yindan foydalanish yuqori natijalarni beradi. Pedagogik texnologiyaning asosiy jarayoni o'quv-tarbiya mashg'ulotlari, ya'ni o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi pedagogik muloqot ko'rinishida amalga oshiriladi.[4.29,]

Bu borada o'quv jarayonini tashkil etishda Zinama-zina metodidan foydalanishda quyidagicha tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun o'quvchilardan talab qilinadi

Zarur vositalar: texnologiyadan foydalanish jarayonida A-3, A-4 formatli qog'ozlardan tayyorlangan (mavzuni kichik mavzularga ajratib, shunga mos ravishda qog'ozlar tayyorlanadi) chap tomoniga, kichik mavzular yozilgan tarqatma materiallar, markerlar, skoch. Texnologiyani qo'llash bosqichlari:

1.O'qituvchi o'quvchilarni kichik mavzular soni mos ravishda 4-5 kishidan iborat kichik guruhlarga bo'ladi (guruhralar soni 4 yoki 5 ta bo'lishi maqsadga muvofiq).

2. O'quvchilar mashg'ulotning maqsadi va uni o'tkazish tartibi bilan tanishtiriladi va har bir guruhgaga mavzu yozilgan tarqatma materiallar berib chiqiladi.

3. Guruh a'zolari tarqatma materialdag'i kichik mavzu bilan tanishib, shu mavzu asosida bilgan ma'lumotlarini markerlar yordamida rasm, chizma, grafika, jadval shaklida berilgan tarqatmadagi bo'sh joyda aks ettirishlari tushuntiriladi va vaqt belgilanadi. Guruh a'zolari o'zlariga berilgan mavzu bo'yicha iloji boricha to'liq ma'lumotlarni aks ettirishlari lozim.

4. Vaqt tugagach, guruhralar ishini guruhning bir a'zosi doskada taqdimot qiladi. Taqdimot vaqtida guruhralar tomonidan tayyorlangan ma'lumotlar doskaga mantiqiy ketma-ketlikda (xuddi zina shaklida) ilinadi.

5. O'qituvchi guruhralar tomonidan tayyorlangan materiallarga izoh berib, zarur joylarini to'ldiradi.

6. Barcha o'quvchilar ishtirotida guruhlarning ishi sifati, mazmuni, dizayniga qarab rangli kartochkalar yordamida baholanadi. Bunda o'qituvchi barcha o'quvchilarga rangli kartochkalar tarqatadi va har bir o'quvchi eng sifatli

ish deb hisoblagan guruhning taqdimot qog‘oziga qo‘lidagi kartochkani yopishtirib qo‘yadi va eng ko‘p kartochka olgan guruhning ishi g‘olib deb topiladi.

O‘quvchilar tafakkur jarayonlarini shakllantirishda bilimlarni o‘zlashtirishlarida tafakkur operatsiyalari, taqqoslashdagi farqga borish o‘quvchining aniqlash qobiliyatini rivojlantiradi. Umumlashtirish, farq qilish va aniqlash bo‘yicha ishlar darslarda gina olib borilmaydi, o‘qituvchi .pedagogik keyslardan foydalanish o‘quvchi tafakkur jarayonini shakllantirishda mustaxkam asos bo‘ladi.

Natijalarining ko‘rsatishicha, o‘quvchilar ilmiy dunyoqarashini yuksaltirishga ishbilarmon o‘yinni qo‘llash quyidagicha qator ta’limiy afzalliklarni qo‘lga kiritish imkoniyatini berar ekan:

- O‘qitishning ijodiy muhiti yaratiladi;
- o‘quvchi sifatlari va ishonchli o‘quv-didaktik va intellektual ma’lumotla ribilan ta’milanadi, ya’ni ular shug‘ullanayotgan sohasi bo‘yicha o‘zlarini ilm-fan va texnika-texnologiyalarning eng so‘nggi yutuqlaridan xabardor bo‘ladi;
- ishbilarmonlar o‘yini barcha turdagini o‘quv mashg‘ulotlarida kompyuter dasturlarining qo‘llanilishini a’minlashga imkoniyatini yaratadi;
- mustaqil ta’lim olishlariga sharoit yaratadi, ya’ni ularning kasbiy faoliyatida, mustaqilholda, bilimlar egallashlarida ishonchli usullardan bo‘lib, o‘zlashtirish lozim bo‘lgan bilim ko‘nikma va malakalarni shakllantiradi.

Ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish bo‘lajak mutaxassislarini xar tomonlama shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, metod orqali o‘quv maqsadlariga erishiladi, obyekt faoliyatini subyekt munosabatiga almashinish, faollashtirish va natijani oldindan kafolatini belgilashni ta’minlab beradi.

Bunday o‘yining diqqatga sazovor tomoni shundaki, bo‘lajak mutaxassis o‘z kasbiy faoliyatini takomillashtirishga ongli va ijodiy holatda yondashadi.

Demak, yuqorida fikrlarni umumlashtirgan holda shuni ta’kidlash joyizki, har tomonlama yetuk shaxsni shakllantirish bugungi kuning asosiy maqsad vazifalaridan bir bo‘lib kelmoqda. albatta xar bir ta’lim olayotgan talabaga kasbiy yo‘nalganligidan kelib chiqqan holda qo‘llanilgan, interfaol metod ishbilarmonlar o‘yinidan foydalanish ijodiytashkiliy-pedagogik faoliyat bo‘lib, uning yordamida ta’lim-tarbiya jarayonining istiqbolli va samarali uslubiyatini yaratish hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da qayd etilgan raqobatbardosh zamonaviy kadrlarni tayyorlashga erishish mumkin ekan.

Adabiyotlar ro‘yhati:

- 1.SH.M.Mirziyoyev “Maktab ta’limini rivojlantirish umumxalq harakatiga aylanishi zarur” Toshkent:23. 08.2019 yil yig‘ilish materiallaridan 4.b.
- 2..«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» G`G` Oliy ta’lim (me’yoriy huquqiy va uslubiy hujjatlar to’plami). – Toshkent: 2004. – 12 b.
- 3.T.G‘afforova “Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar”. - Toshkent 2011y-4b-84b
- 4.Shirin Kamolova, РАСШИРЕНИЕ И РАЗВИТИЕ НАУЧНОЕ МИРОВОЗЗРЕНИЕ СТУДЕНТОВ , Журнал Педагогики и психологии в

современном образовании: № 1 (2020): Journal of Pedagogy and psychology in modern education

5. Shirin Kamolova, САМОВОСПИТАНИЕ – ОСНОВА ФОРМИРОВАНИЯ ГАРМОНИЧНО – РАЗВИТОГО ПОКОЛЕНИЯ , Журнал Педагогики и психологии в современном образовании: № 1 (2020): Journal of Pedagogy and psychology in modern education

6. Shirin Kamolova, ПРЕЕМСТВЕННОСТЬ ФОРМИРОВАНИЯ МИРОВОЗЗРЕНИЯ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ОБЩЕЧЕЛОВЕЧЕСКИХ СЕЙНОСТЕЙ , Журнал Педагогики и психологии в современном образовании: № 1 (2021): Zamonaviy ta'limda pedagogika va psixologiya fanlari

7. Shirin Kamolova, THE ROLE OF UNIVERSAL AND SCIENTIFIC VALUES IN THE SPIRITUAL DEVELOPMENT OF FUTURE TEACHERS , Журнал Педагогики и психологии в современном образовании: № 2 (2021): Журнал педагогики и психологии в современном образовании

8. Shirin Kamolova, ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ В ОБРАЗОВАНИИ ЯВЛЯЕТСЯ ТРЕБОВАНИЕМ СЕГОДНЯШНЕГО ДНЯ , Журнал Педагогики и психологии в современном образовании: № 2 (2021): Журнал педагогики и психологии в современном образовании

9. Shirin Kamolova, IMPLEMENTATION OF PEDAGOGICAL ETHICS IN FUTURE TEACHERS , Журнал Педагогики и психологии в современном образовании: № 3 (2021): Zamonaviy ta'limda Pedagogika va psixologiya fanlari

10. Kamolova, S. U., Shakarbaeva, S. A., Yuldashev, S. A., & Ochilov, C. Q. (2020). The Essence Of The Content Of Enriching The Scientific Outlook Of Future Teachers. *Essence*, 29(8), 3593-3598.

11. Kamolova, Shirin Usarovna, & O'Skanov, Mirsaid (2022). BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH JIHATLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (2), 676-681.

12. Kamolova, Shirin Usarovna, & Axmedova, Fotima Xurramovna (2022). SOG'LOM SHAXS HAYOTIDA PSIXOLOGIK XIZMATNING O'RNI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (2), 630-636.

13. Nuriddinovna, K. S., & Meliyevna, P. N. (2022). Characteristics of Environmental Education Issues in Avesto. International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences, 2(2), 69–72. Retrieved from <https://openaccessjournals.eu/index.php/ijdias/article/view/1053>

14. Dilfuza Qarshiboyeva, КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У ПОДРОСТКОВ , Журнал Педагогики и психологии в современном образовании: № 1 (2021): Zamonaviy ta'limda pedagogika va psixologiya fanlari

15. Dilfuza Qarshiboyeva, IMPORTANCE OF PSYCHOLOGICAL KNOWLEDGE IN LEARNING FOREIGN LANGUAGES , Журнал Педагогики и психологии в современном образовании: Том 1 № 4 (2021): Zamonaviy ta'limda Pedagogika va psixologiya fanlari

16. Qarshiboyeva, D. (2021). ЁШЛАРНИ КАСБГА ЙЎНАЛТИРИШДА ИЛМИЙ ИЗЛАНИШЛАР ҲАҚИДАГИ БИЛИМЛАР

- УЗЛУКСИЗЛИГИ. Журнал *Педагогики и психологии в современном образовании*, (2). извлечено от <https://art.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/2906>
- 17.Kamolova, S. (2022). ЁШ АВЛОДНИ ТАРБИЯЛАШДА ТАРБИЯВИЙ ИШЛАРНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ПСИХОЛОГИК АСОСЛАРИ . Журнал *Педагогики и психологии в современном образовании*, 2(6). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5571>
- 18.Karshibaeva Dilfuza Burlievna (2020). CRITICAL THINKING IN ADOLESCENTS. Евразийский Союз Ученых, (12-1 (81)), 4-5.
- Karshibaeva, D., & Sattarova, F. (2020). CRITICAL THINKING IN ADOLESCENTS. EurasianUnionScientists, 1(12 (81)), 4-5.
- 19.Kamolova, S. (2022). MAKTABGACHA YOSHIDAGI BOLALARDA IJODIY QOBILIYAT XUSUSIYATLARINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI . Журнал *Педагогики и психологии в современном образовании*, 2(4). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/6111>
- 20.Kamolova, Shirin Usarovna, & Axmedova, Fotima Xurramovna (2022). SOG'LOM SHAXS HAYOTIDA PSIXOLOGIK XIZMATNING O'RNI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (2), 630-636.
- 21.Kamolova, Shirin Usarovna, & O'Skanov, Mirsaid (2022). BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH JIHATLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (2), 676-681.